O‘QUVCHILARNING LINGVOMADANIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

T.Sh.Muhammadiyev
GDPI Ta’lim sifatini nazorat
qilish bo‘limi bosh mutaxasissi
e-mail: tulaganmuhammadiyev282@gmail.com

Annotatsiya: Kompetensiyalar — bu shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikmalar, qobiliyatlar va shaxsiy xususiyatlar to‘plamidir. Kompetensiyalar individual yoki jamoaviy ishning sifatini oshirishga, maqsadga erishishda samarali bo‘lishga yordam beradi. Ular insonning nafaqat professionalligi, balki shaxsiy rivojlanishi hamda jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhimdir.

Kalit so‘zlar: Kompentensiya Kompentensiya modeli Kompetensiya tahlili Aloqa kompetensiyasi Liderlik kompetensiyasi Jamoa bilan ishlash kompetensiyasi Moslashuvchanlik Strategik fikrlash.

Annotation: Competencies are a set of knowledge, skills, abilities and personal characteristics that a person needs to successfully perform a specific activity. Competencies help to improve the quality of individual or collective work, to be effective in achieving the goal. They are important not only for a person's professionalism, but also for personal development and successful functioning in society.

Key words: Competency Competency Model Competency Analysis Communication Competency Leadership Competency Teamwork Competency Adaptability Strategic Thinking

Bugun kunda ta’lim sohasida kompetentlilik kabi tushunchalar muomalada juda keng foydalanilmoqda. Kompetensiyani rivojlantirish mazmuni o‘quvchilarda fikr va mulohazalarini o‘z ona tilida erkin, aniq, qisqa, ravon va tushunarli tarzda bayon eta olishiga, o‘z nutqida adabiy til normalariga rioya qilgan holda so‘zlash, imlo va uslubiy xatolarsiz fikr almashishga yordam beradi. Umumta’lim maktablarida mazkur kompetensiyalarga ega o‘quvchini tarbiyalash “Ona tili” fanining zimmasidadir. Ona tili darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarda tilshunoslikka oid nazariy bilimlarni boyitish emas, balki o‘quvchilarda mazkur bilimlarni amaliyotda tadbiq eta olish, qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish deb belgilab olish bugungi kun ta’lim sohasi oldida turgan asosiy muammo hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimi sifatida o‘quvchilarda lingvistik bilimlarni badiiy adabiyot vositasida shakllantirish esa nazariy bilimlarni kontekst ichida kelishi bilan bog‘lagan holda tushuntirish bilim oluvchilarning o‘qib o‘rganganlarini tushunarli va esda qolarli bo‘lishini taminlaydi.

Kompetentlik nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o‘z bilimlarini uzluksiz ravishda namoyish eta olishi va egallagan bilimlarini yangilab borish ham demakdir. Kompetentlik mutaxassisning ma’lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida bola ruhiyati va uning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish maqsadga muofiq, ya’niy o‘quvchiga fanni tushuntirish jarayonida o‘zini darajasida tushuntirilsa va rial voqialarga misollar yordamida yoritilib borilsa maqsadga erishilgan hisoblanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimini joriy etish, shuningdek, mustaqil fikr egasi, erkin va ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘quvchi va talabalarni ona tili darslarida mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ular ongida ma’naviy-ma’rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg‘ulotlarni o‘quvchi va talabalarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi. Til o‘qitishda til va nutq hodisalarining farqiga yetmaslik ko‘pgina chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash uni o‘qitish metodikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Chunki til birliklarining grammatik belgilarini, birikuvini va vazifasini bilishning o‘zi mazkur tildagi nutqni egallash uchun yetarli emas. Asosiy maqsad tilning grammatik qurilishi asosida nutq faoliyatini egallash bo‘lganligi sababli, mashg‘ulot materiallarini tanlash, darslarni tashkil etish ishlari o‘quvchilarning nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shuning uchun til ma’ruza orqali emas, balki nutq ko‘rinishlarini tahlil qilish, so‘z birikmasi va gap modellarini o‘zlashtirish, esda saqlash orqali o‘rganiladi.

Ta’limni rivojlantirish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, ta’lim tizimiga innovatsion texnologiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish ta’limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda ulardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda bugungi kun o‘quvchilariga alohida e’tibor qaratilib, ularni sog‘lom, aqliy rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, iqtidori va intellekti yuqori, hayotiy nuqtayi nazarga ega, vatanga mehr muhabbatli qilib tarbiyalash, ijtimoiy faolligini oshirish, ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab quvvatlash ishlari olib borilmoqda. Davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalar va o‘quv jarayonini interaktiv boshqarish mahorati tamoyillariga asoslangan pedagogik faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bugungi kunda o‘quvchilar uchun yangi nashr qilingan ona tili darsliklari, o‘qituvchidan juda katta mehnat, tinimsiz izlanishda borishni talab qiladi. O‘quvchiga tayyor qoidalarni yodlatib emas, balki ijodiy fikrlash orqali uning mustaqil fikrlashga tayyorlab borishni nazarda tutadi. O‘quvchilarining kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchilarning axbarot-kommunikasiya texnologiyalari savodxonligi muhum ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning zamonaviy axbarot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish savodxonligini oshirish o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish muhum ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o‘qituvchilarni ilmiy, metodik salohiyatlarini oshirishda o‘quvchilarga lingvomadaniy kompetensiyalarini shakillantirishda bir qancha talablar qoyilmoqda.

Kompetensiya shaxsning murakkab, ta’limiy tuzulishi bo‘lib, u o‘zida shaxsning intellektual, irodaviy, kreativ, emotsional sifatlarini o‘zida jamlaganki, ular faoliyatdan ko‘zlangan maqsad uning o‘zgarib boruvchi sharoitida amalga oshib borishini ta’minlaydi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, kompetensiya shaxsning yuqori xislati bo‘lib, uning shakllanishi ta’limning hal qiluvchi oqibat, natijasi hisoblanadi. Respublikamizda ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar belgilab olindi. Kommunikativ kompetensiya-o‘quvchilarning o‘zaro muloqot almashunivini yo‘lga qo‘yadigan, jamiyatda o‘rnini his etadigan va fikrini teran bayon etadigan qobilyatini ko‘rsatadi. O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi-o‘quvchi o‘rgangan bilimlarni mustahkamlash, ularga asoslanib boshqa bilimlarni qidirish va o‘zlashtirish orqali o‘zini o‘zi rivojlantirish qobilyatini bildiradi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi-o‘z fuqarolik huquqi, burchi va vazifalarini biluvchi, o‘quvchi kompetensiyadan iborat. Milliy va umummadaniy kompetensiya-o‘quvchining milliylik ruhiyatini rivojlanishi, umummadaniy qadryatlarning tarkib topishiga qaratilgan kompetensiya. Kompetensiyalarni shakllantirishda o‘quvchilarni innovatsion texnologiyalar yordamida dars o‘tilishi juda yuqori samara beradi. So‘nggi yillarda respublikamizda til o‘qitish tizimini yangicha innovatsion sifat bosqichiga olib chiqishga oid islohotlar umumiy o‘rta ta’lim ona tili darslarida o‘quvchilarga nutqiy kompetensiya komponentlarini egallashga doir ilmiy-nazariy bilimlarni chuqur o‘rganish, erkin, kreativ, ilmiy va

mantiqiy fikrlash hamda atrof-muhitga ongli munosabatni rivojlantirish, og‘zaki va yozma savodxonligini mustaqil ifodalay olishlari uchun zarur imkoniyatlar bermoqda. Ta’limga kompetensiyaviy, integrativ va kommunikativ yondashuv o‘quvchilarda ilmiy tafakkur potensialining o‘sishi, kasbiy kompetentlikning faollashuvi, izlanuvchan, yangilikka intilgan, harakatchan, tashabbuskor, o‘zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, yetuk, barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga ijobiy, samarali ta’sir ko‘rsatadi. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturida “Ona tili fani o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish, o‘quvchida til qurilishiga oid o‘zlashtiriladigan amaliy bilimlarni fonetika, leksika, so‘z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni rivojlantirish” nazarda tutadi. O‘quvchilarda ushbu malaka talablarini rivojlantirish va takomillashtirishda esa ona tili o‘qituvchisining o‘rni beqiyosdir. O‘quvchilarning to‘g‘ri mantiqiy fikrlashini rivojlantirish borasida ona tili fani o‘qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o‘quvchilarni to‘g‘ri jumla tuzishga, ravon mulohaza qilishga, fikr yuritishga, yozish o‘rgatib boradi. Demak, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida ona tili o‘qituvchisi kontekstli o‘qitish va zamonaviy yondashuvlar asosida o‘quvchilarga mazmunan va grammatik jihatdan to‘g‘ri jumla tuzishni, mustaqil fikr yuritishni hamda o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki hamda yozma bayon qilishda olingan bilimlarni amalda qo‘llay olishni o‘rgatib boradi. Ona tili nafaqat barcha fanlarni o‘zlashtirishda, balki umuman, jamiyatda insonlarning o‘zaro munosabatga kirishishida muloqotning shakllanishida ham ahamiyatlidir. Ona tili darslarida milliy til – ona tilini o‘qitishda har bir sinfda o‘quvchilar egallashi ko‘zda tutilgan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt lisoniy ko‘nikmasini, ya’ni nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha talab etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yori rivojlantirilib boriladi. Inson hayoti davomida nutqiy faoliyatning ta’siri va ahamiyati, nutqning doimiy o‘sib boruvchanligi, oilada, jamiyatda va ta’limda mazkur kompetensiyaning rivojlanish xususiyatlari aks etishi, ayniqsa, ona tili ta’limida o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish, o‘quvchilarni o‘z fikrini mustaqil, erkin va asosli bayon qila olish ko‘nikmasini o‘stirish orqali nutqiy faoliyatga tayyorlash jarayonini sifatli tashkil etish va kutilgan natijaga erishishda ona tili darslarida ta’lim oluvchining og‘zaki hamda yozma nutqini namunali darajaga olib chiqish to‘g‘risida fikr yuritgan. Nutqiy kompetensiya uzluksiz ta’limda o‘qitiladigan barcha fan predmetlarining integratsiyalashuvi natijasida takomillashib boradi va o‘quvchilarning o‘z nutqi ustida ishlashiga imkon beradi. Nutqiy kompetensiya o‘quvchilarning amaliy faoliyati davomida axborotlar bilan ishlashi, turli nutqiy vaziyatlarda o‘zgalar fikrini tinglashi va o‘z fikrini mustaqil bayon eta olishi, mantiqiy fikrlashi, og‘zaki yoki yozma ma’lumot olish va ma’lumot berish jarayonlarida adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda lisoniy qoidalarni qo‘llashi natijasida takomillashib boradigan nutqiy bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish qobiliyatidir. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari ular mavjud bo‘ladigan barcha lisoniy hamjamiyatlarda, ya’ni o‘z oilasida, tengdoshlari davrasida, ijtimoiy muhitlarda amalga oshiriladigan nutqiy faoliyatlari davomida sayqallanib boradi, chunki o‘quvchi o‘z navbati bilan ham so‘zlovchi, ham tinglovchi pozitsiyasini egallaydi, jarayonning faol ishtirokchisi sifatida savol-javoblarda qatnashadi, munosabat bildiradi, o‘z fikrlarini himoya qilishda so‘z boyligidan to‘la foydalanishga ehtiyoj sezadi, shu holat o‘quvchi leksikasida hikmatli so‘zlar, maqollar, hikoyalardan eshitib, o‘qib o‘zlashtirgan so‘zlardan amalda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Nutqiy kompetensiyani tashkil etuvchi tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish tarkibiy elementlari o‘quvchilarda bir-birini taqoza etuvchi hamda to‘ldirib boruvchi, o‘zaro chambarchas bog‘langan nutqiy jarayonlar bo‘lib, har biri nutqiy faoliyatning rivoji uchun muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari tizimli va uzluksiz ravishda o‘qitishning dastlabki bosqichlaridan boshlab rejaga muvofiq til sathlariga oid grammatik qoidalar va ularni mustahkamlashga doir mashq va topshiriqlar asosida rivojlantirilib boriladi. Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari ham rivojlantirilib boriladi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asrida til o‘qitish tizimida ham zamonaviy yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy didaktik vositalardan foydalangan

holda o‘quvchilarda tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish nutqiy ko‘nikmalarni kompleks rivojlantirish bugungi davr talabidir. Ona tili darslarida o‘quvchilarga nutqiy kompetensiya tarkibiy elementlarining funksional mazmunini singdirish va amalda qo‘llashga o‘rgatish ularning jamiyatda kommunikativ aloqaga kirishlarida, og‘zaki va yozma muloqot jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugungi shiddatli davr har bir insondan bolalik chog‘idan boshlab qunt bilan o‘qish, ilm va hunar o‘rganishni talab etmoqda. O‘quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma’lumki, har bir milliy til o‘zida moddiy olamni aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg‘u-alamlari-yu shodliklarini ham o‘rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o‘z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi. Tilning o‘ziga xos nafosatini o‘quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta’limida an’anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. O‘quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo‘qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nofaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi. Ona tili darslarida nutqiy kompetentsiyani rivojlantiruvchi ta’lim vazifalarini yaratishda integratsiya masalasi til ta’limida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mavzudir. Nutq malakasi samarali muloqotda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va u o‘quv rejasini tuzishda va o‘qitish amaliyotida ehtiyotkorlik bilan e’tiborni talab qiladi. Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar va imtiyozlar haqida umumiy ma’lumot beradi, uning o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun oqibatlarini yoritadi. Integratsiya yondashuvi til ko‘nikmalarining o‘zaro bog‘liqligini tan oladi va o‘qish, yozish, tinglash va gapirishning bir vaqtda rivojlanishiga urg‘u beradi. Texnologiya integratsiyasi nutq amaliyotini va shaxsiylashtirilgan o‘rganishni osonlashtirish vositasi sifatida o‘rganiladi. Raqamli vositalar va onlayn platformalar o‘quvchilarning interaktiv nutq vazifalarini bajarish va darhol fikr-mulohazalarni olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishdan o‘tish va faol ishtirok etish, hamkorlik va mulohaza yuritishni rag‘batlantiradigan qo‘llab-quvvatlovchi sinf muhitini yaratish orqali integratsiya va nutq kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Muammolarni hal qilish va samarali integratsiya strategiyalarini taklif qilish orqali tilni o‘qitishga kompleks yondashuvni qo‘llash muhimligini ta’kidlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi, tildan haqiqiy foydalanishni targ‘ib qiladi va ularni real hayotdagi til bilan tanishishga tayyorlaydi. Kompetentsiyaviy yondashuvni tatbiq etish, o‘quvchilarning tayanch hayotiy va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish jarayoni modelining prognostik komponentlarini aniqlashtirish, maktab yoshidagi o‘quvchilarda tayanch hayotiy kompetentsiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vaziyatlarni loyihalashning maqbul mexanizmlarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o‘quvchilarning tayanch hayotiy va fanga oid kompetentsiyalarini tashxislashning modifikatsion metodikalarini ishlab chiqish, o‘quvchilarda hayotiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning ta’limga asoslangan muhim dolzarblik kasb etadi. O‘quvchilarning tayanch hayotiy va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarida tayanch hayotiy kompetentsiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, tayanch hayotiy kompetentsiyalarni tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. Nutqiy tajriba ona tilini amaliy bilish, oilada, ko‘cha-ko‘yda, jamoat joylarida boshqalardan eshitish orqali maydonga keladi. Nutqiy kompetensiya nutqiy tajriba va til haqidagi bilim munosabati bir butunligi asosida shakllanadi. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida bu ikki tomonning o‘zaro munosabatini hisobga olishi katta ahamiyatga ega. Nutqiy kompetensiya (kommunikativ kompetensiya) o‘quvchining notanish matnni ifodali o‘qiy olish, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og‘zaki qayta bayon qila olish, fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish darajasi hisoblanadi. Lingvistik kompetensiya – maktab o‘quvchisining lingvistik kompetensiyasi deganda til sistemasi haqidagi bilimga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarda

bilim va ko‘nikmalarini mustaqil qo‘llash tajribasiga ega bo‘lgan o‘quvchining shaxsiy xislatlari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, lingvistik kompetensiya ijtimoiy hodisa va belgilar sistemasi sifatida til haqida, tilning qurilishi va funksiyalashishi haqidagi o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmasi hamda bulardan turli vaziyatlarda mahorati anglashiladi. Umuman olganda, lingvomadaniy yondashuv orqali nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, til o‘rganish jarayonini yanada boy va mazmunli qilishga yordam beradi, shu bilan birga, o‘quvchilarni global madaniy tafovutlarni hurmat qilishga va o‘zaro tushunishni rivojlantirishga rag‘batlantiradi. Lingvomadaniy nutq ko‘nikmalari til va madaniyatni bir butun sifatida qabul qilib, bu ikki omilni birgalikda rivojlantirishni anglatadi. Ushbu ko‘nikmalar tilni o‘rganishda madaniy kontekstlarni hisobga olishni talab qiladi.

Madaniy kontekstda tilni qo‘llash bu ko‘nikma o‘quvchining tilni o‘rganayotganda madaniy omillarni hisobga olishini talab qiladi. Masalan, biror bir ibora yoki so‘z turli madaniyatlarda turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli, tilni o‘rganishda u yoki bu iboraning madaniy kontekstini bilish muhim. Madaniy tafovutlarni anglash va hurmat qilish lingvomadaniy ko‘nikmalar o‘quvchilarga turli madaniyatlarning o‘ziga xosliklarini anglash va hurmat qilishga yordam beradi. Bu ko‘nikma nafaqat tilni, balki turli madaniy urfodatlar, qadriyatlar va ijtimoiy qoidalarni tushunishni ham o‘z ichiga oladi. Kommunikativ kompetentsiya madaniy kontekstlarda muloqot qilish qobiliyati, ya’ni turli madaniyat vakillari bilan samarali va hurmatli muloqot qila olish qobiliyati. Bu ko‘nikma tilning grammatik jihatlari bilan bir qatorda madaniy jihatlarini ham o‘z ichiga oladi. Interkultural kompetentsiya turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar. Bu, turli madaniy tafovutlarni tushunish, ularni hurmat qilish va moslashish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ona tili va adabiyotni o‘qitishga kompetensiyaviy yondashuv bu o‘qituvchi shaxsining yoshlarni til haqidagi bilimlarini oshirish bilan birgalikda, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o‘rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalana olish qobiliyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytsak ona tili va adabiyot o‘qituvchisining bosh vazifasi faqat bilimga ega yoshlarni tarbiyalash bilan cheklanmay, balki bu bilimlarga ega bo‘lish bilan birgalikda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarda o‘rinli foydalana oladigan, malaka va ko‘nikmasi rivojlangan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Demak, ta’limning barcha turlarida, xususan, tilga oid ta’limda kompetensiyaviylikni rivojlantirishga e’tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik deontalogiya va kompentlikning roli va ahamiyati Ortiqov.O.R – 2021 yil.

2. Ona tili. O‘rta ta’lim muassasalarining 11- sinfi va kasb- hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. Mahmudov.N. va boshq. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018 yil.

3. A.G‘ulomov, M.Qodirov va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012 yil.

4. Kelajak-til sohiblariniki. Til va adabiyot ta ’limi Rasulov R. (2020) yil.

5. Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash mahorati. Science and Education, 2020 yil.

2. Til – millatning ma’naviy merosi. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari N.Shayxislamov U.Baykabilov 2020 yil.

4. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Rafiyev A G‘ulomova N. “Sharq”, 2013 yil.

5. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya N.Sayidahmedov T.: 2003 yil.